

---

## NODAVLAT MAKTABGACHA TAʼLIM TASHKILOTLARI XODIMLARI UCHUN O'QUV SEMINAR



### **NODAVLAT MAKTABGACHA TAʼLIM TASHKILOTLARI XODIMLARI UCHUN O'QUV SEMINAR**

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, tizim mutaxassislariga metodik yordam ko'rsatish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyaning samarali tashkiliy va pedagogik shakllari, o'qitishning zamonaviy ilg'or usullarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'limiy-tarbiyaviy jarayonga joriy etish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish barchamizning asosiy vazifamiz hisoblanadi.

So'x tumanida ham bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish maqsadida Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham turli seminar va tadbirlar tashkillanib kelmoqda.

Jumladan, So'x tumani xalq ta'limi bo'limida tuman nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tadbirkorlar va tarbiyachilari uchun viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi tomonidan onlayn o'quv seminari tashkil etildi.

Seminarda maktabgacha ta'lim boshqarmasining mutaxassislar o'z bilimlari bilan o'rtoqlashishdi. Seminarda tumandagi maktabgacha ta'lim bo'limi bilan hamkorlik qilayotgan tadbirkorlar ishtirok etishdi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-04-23 13:30:59